

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

**O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA KASBIY  
DIAGNOSTIKA YO'NALISHIDAGI INNOVATSIYALARNING O'RNI**

**10.53885/edinres.2022.26.43.125**

**Sh.A. Xasanova**

Toshkent shahar Sergeli tumanidagi 55-umumiy  
o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi. O'zbekiston, Toshkent

[xasanov\\_1955@bk.ru](mailto:xasanov_1955@bk.ru)

**МЕСТО ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИННОВАЦИОННОЙ ДИАГНОСТИКИ В  
ПОВЫШЕНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ**

Sh.A. Xasanova

Преподаватель средней общеобразовательной школы  
№ 55 Сергелийского района г.Ташкента.

Узбекистан, Ташкент,

[xasanov\\_1955@bk.ru](mailto:xasanov_1955@bk.ru)

**THE ROLE OF INNOVATIONS IN THE DIRECTION OF PROFESSIONAL  
DIAGNOSTICS IN IMPROVING TEACHERS ' PEDAGOGICAL SKILLS**

Sh.A. Xasanova

Teacher of historical sciences 55-th Secondary  
School in Sergeli District of Tashkent.

Uzbekistan, Tashkent.

[xasanov\\_1955@bk.ru](mailto:xasanov_1955@bk.ru)

**Annotatsiya.** O'qituvchilarning kasbiy pedagogik mahoratini oshirish jarayoni bugungi qo'yilayotgan talablarga muvofiq tashkil etilishi, uning shakllari, mazmuni va usullari tinmay oshirib borish zarurligi e'ritib berilgan.

**Аннотация.** Освещены вопросы повышения профессионального мастерства учителей, организации учебного процесса по требованиям сегодняшнего дня.

**Annotation.** It was emphasized that the process of professional pedagogical skills of teachers should be organized in accordance with the requirements, and its forms, content and methods should be increased without interruption

**Kalit so'zlar:** pedagogik mahorat, malaka oshirish, kasbiy diagnostika, axborot- kommunikatsion texnologiyalar, kasbiy faoliyatir, davriy diagnostika.

**Dolzarbligi.** O'qituvchilarning kasbiy pedagogik mahoratini oshirish jarayoni bugungi qo'yilayotgan talablarga muvofiq tashkil etilishi, uning shakllari, mazmuni va usullari zamonaviy darajada bo'lishi zaruro, Zero, o'qituvchining pedagogik mahorati bilimli va zakovatli yoshlarni tarbiyalab, voyaga yetkazishda muhim omil hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish jarayoni bugungi qo'yilayotgan talablarga muvofiq tashkil etilishi, uning shakllari, mazmuni va usullari zamonaviy darajada bo'lishi zarur. Bunda pedagog mutaxasislarning malakasini oshirish masalasida kasbiy diagnostika yo'nalishidagi innovatsiyalarning ayrimlari haqida to'xtalib o'tamiz:

-malaka oshirishga ehtiyojlarni kasbiy diagnostika asosida ilmiy asoslangan holda aniqlash;

-malaka oshirishning aniq maqsadlarini belgilash va shu orqali malaka oshirishni sifatli, tejamli, yuqori samarali bo'lishini ta'minlash;

-malaka oshirish mazmunini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish;

-malaka oshirishning tashkiliy-pedagogik shakllari va usullarini takomillashtirish;

-malaka oshirishning davriyligi, davomiyligi va turli shakllarini ilmiy asoslarda belgilash;

-malaka oshirish sifatini belgilash mezonlarini ishlab chiqish;

-malaka oshirishni ilmiy asosda, haqiqiy ehtiyojlarga muvofiq rejalashtirishni yo'lga qo'yish va boshqalar.

Endi esa malaka oshirishda kasbiy diagnostika yo'nalishidagi innovatsiyalarning ayrim jihatlarini qisqacha ko'rib o'tamiz. Umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagoglari faoliyatini ma'lum tizimga muvofiq kuzatish, qiyoslash, muntazam monitoring qilib borish asosida malaka oshirishdan ko'zlangan maqsadlar belgilanadi.

Bu maqsadlarga erishiish uchun pedagoglarining kasbiy faoliyati bo'yicha tayyorgarlik darajasini, uning muayyan vaqt oraliklaridagi o'zgarishlari dinamikasini, qaysi yo'nalishlarda yuqori yoki quyi darjada ekanligini, mavjud bo'shliklarni aniqlash va shu bilan birga pedagoglar faoliyatining asosiy ko'rsatkichi sifatida o'quvchilar bilim sifatini oshishi va erishgan natijalari ko'rsatkichlari va

**Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar.** Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

dinamikasini, ular salohiyatidagi yuqori, quyi darajadagi kamchiliklarni aniqlab borishdan iborat bo'ladi. Kasbiy diagnostika ishlari hamda pedagoglarning o'zini o'zi kasbiy diagnostikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining rahbarlari va mas'ul xodimlari hamda rahbar tashkilotlari tomonidan olib boriladi.

Kasbiy diagnostikaning yo'nalishlari pedagogning o'z sohasi, o'z fani va mashg'ulot o'tkazish metodikasi bo'yicha ilmiy-nazariy, uslubiy hamda amaliy bilim, ko'nikma, malakalari, zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol ta'lim usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, umumpedagogik, psixologik, ma'naviy, ma'rifiy tayyorgarligini diagnostika qilish yo'nalishlaridan iborat bo'ladi.

Kasbiy diagnostikaning usullari turli bo'lib, ulardan asosiylari test sinovi, savol-javoblar, pedagogning darslarini kuzatish va tahlil qilish, uning kasbiy faoliyatiga nisbatan umumiy o'rta ta'lim maktabi jamoa a'zolarining, ota-onalarning munosabatlarini so'rovnomalar orqali o'rganish, pedagogning o'zini o'zi kasbiy diagnostika qilish natijalarini hamda o'quvchilar bilimining o'sish ko'rsatkichlarini hisobga olish va boshqalardir.

Pedagogning lavozim majburiyatlari, o'quv reja, dasturlar, o'quv-metodik materiallar, darslik va pedagoglik faoliyatiga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar va shu kabilar kasbiy diagnostika vositalari hisoblanadi va ular kasbiy diagnostikani o'tkazish hamda natijalarini aniqlash uchun asosiy mezonlarni belgilaydi.

Kasbiy diagnostikani amalga oshirish vaqtiga ko'ra muntazam, davriy va navbatdan tashqari turlarga ajratish mumkin. Bunda muntazam yoki uzluksiz kasbiy diagnostikani umumiy o'rta ta'lim maktabida maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari yoki fan metod birlashmasi rahbari tomonidan olib borilishi hamda pedagog tomonidan o'zini o'zi muntazam diagnostika qilib borishi zarur bo'ladi. Davriy diagnostikani yarim yilda tuman xalq ta'limi bo'limi metodisti va maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari fan metod birlashmasi rahbari bilan hamkorlikda o'tkazadi. Zarur hollarda navbatdan tashqari kasbiy diagnostika o'tkazilishi ham mumkin.

Kasbiy diagnostika pedagogning tayyorgarlik darajasini va undagi kamchiliklarni tezkor aniqlash hamda o'z vaqtida bartaraf etib borish imkonini beradi. Shu bilan birga kasbiy diagnostika asosida aniq maqsadli malaka oshirishni tashkil qilish imkoni yaratiladi. Buning natijasida pedagog malaka oshirishining turli shakllari orasidan har bir muayyan maqsadga muvofiqklarini tanlash imkonini beradi va malaka oshirishning sifati va samaradorligi zamonaviy talablar darajasida yuqori bo'lishiga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston xalqiga yangi yil tabrigi. 2021-yil 31-dekabr  
Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent.: «O'qituvchi», 1993 yil, 182-bet.
3. Tashanov A. Vayronkor g'oyalar va buzg'unchi mafkuralar. Toshkent, "Turon zamin ziyo", 2015 yil, 37-bet.
- 4.. Mavrulov A. Vatanni sevish mas'uliyati. T.: "Sano-standart", 2015. 67-bet.
- Oltinov U.. Mafkuraviy targ'ibotni uslubiy takomillashtirish yo'llari. Toshkent, Mchj "Garuda". 1-bet
- Jo'raev N. Mafkuraviy immunitet. Ma'ruza matni. T.: Ma'naviyat 2000. 16 b.
- Zakurlaev A. G'oyalar kurashi. – T.: Movarounnahr, 2000. – 64 b.
- Muhammad Qurinov. Ogohlik: tarix va zamon saboqlari. Toshkent, Ma'naviyat, 2015. 40 - bet.
- [Толаметов А.А. Спорт турлари бўйича тренер-ўқитувчиларни малакасини оширишда электрон дарсликлардан фойдаланиш, Academic research in educational sciences, 2021, Toshkent.: 2021.](#)
- Karomatovich I. A. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL SUPPORT OF YOUNG TEAM ATHLETES //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 02. – С. 1011-1016.
- Ibragimov A. K. DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //E-Conference Globe. – 2021. – С. 333-338.
- Karomatovich I. A. METHODS OF TEACHING CHILDREN FOR MOVEMENT ACTIVITIES IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 1. – С. 242-249.
- Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training special endurance of young girl handball players. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 11. P: 486-492. DOI: 10.5958/2249-7137.2020. 01410. X.

**Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar.** Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

Narzullayev, Farrux. "Qizlar sporti yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan qizlarning yengil atletika darslarida kuch siaftlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 1.1 (2020).

Ashrapovich, N. F. (2021). Determination of physical development of primary school students through national movement games. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.

Ashrapovich, N. F. (2022). FORMS OF CONTROL OVER THE PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITY OF THE TRAINER AND ITS PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 372-379.

Narzullayev, Farrux Ashrapovich, and Dinara Olimovna Begimkulova. "Sport psixodiagnostikasi fanini o'qitishda ta'lim texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari." *Science and Education* 3.4 (2022): 1724-1730.

Nematovich K. S. Abduyeva Sitorabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzam Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldoshevich. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features //Journal of Critical Reviews. doi. – T. 10. – C. 470-471.

Abdueva S. S. Q. Determining the speed and strength of 14-15 year old handball players in jumping //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 11. – C. 1212-1220.

Abdueva S. S., Khurbonov S., Sabirova N. Evolution of physical performance and techniques of handball girls aged 11-12 //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). – 2019.

Abdueva S. S. Activities that increase children's interest in the sport of handball //Innovatsionnoerazvitienauki I obrozovaniemejdunarodnayanauchno-prakticheskayakonferensiya. – 2020.

Rasulovna S. N. THE PLACE OF PHYSICAL TRAINING AND SPORTS IN THE LIFE OF SCHOOL STUDENTS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 2. – №. 04. – C. 306-312.

Rasulovna S. N. TOOLS FOR DEVELOPING SPECIAL PHYSICAL TRAINING AND PHYSICAL QUALITIES IN SPORTS GAMES //E-Conference Globe. – 2021. – C. 299-305.

Sabirova Nasiba Rasulovna. Basics and Advantages of Individual Training to Increase Technical and Tactical Training of Basketball Players. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH*. ISSN: 2690-9626 Vol.3, No 1, 2022

Akmalovich, D. B. (2020). Organization of independent work of students in the process of physical education. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(11), 120-123.

Safarova Rokhat G. Ways and factors of optimization of the content of general secondary education in today's world // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2012. №2 (eng). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ways-and-factors-of-optimization-of-the-content-of-general-secondary-education-in-today-s-world> (дата обращения: 09.05.2022).

Мухитдинова Н.М. Абитова Ж.Р. Механизмы интеллектуального развития дошкольников с помощью физических занятий // Проблемы педагогики.- 2020- № 3 (48) с 79-81

Djurayeva Maxasti Zokirqizi "The emotion training system for atudents of preschool education for sports gymnastics sports competitions" 88-101 betlar. *International Journal of Advanced Research in Monagement and Social Sciences*. Vol.1 №2 February 2022

Джураева Махасты Зокировна "Характеристика эмоционально –волевой готовности личности к спортивной деятельности" 169-171 betlar. Россия-Таджикистан –Узбекистан. молодежь и развитие духовной культуры общества: актуальные проблемы и перспективы их решения. 22апреля 2022г.